

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

ELEKTR TEXNOLOGIK QURILMALAR

fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun

USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent 2018

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

ELEKTR TEXNOLOGIK QURILMALAR

fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun

USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent 2018

Tuzuvchilar: Xakimov T.X., Niyozov N.N. “Elektr texnologik qurilmalar” fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, ToshDTU, 2018. - 130 b.

“Elektr texnologik qurilmalar” fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun uslubiy qo‘llanma, “5310200 – Elektr energetika” ta’lim yo‘nalishida tahsil oladigan talabalarni fanni o‘zlashtirish jarayonida olgan nazariy bilimlarini kengaytirish va mustahkamlashni o‘ziga maqsad qiladi.

Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning amaliy jihatdan mahoratlari o‘sib, amaliy mashg‘ulotlarni sohaga oid ma’lumotnomalaridan mustaqil foydalangan holda yechish usullarini o‘rganadilar.

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-
uslubiy kengashining qaroriga asosan chop etiladi.*

Taqrizchilar:

Xoshimov F.A. – “O‘zbekenergo” AJ Ilmiy texnika markazi
laboratoriya mudiri, t.f.d., professor.

Pirmatov N.B. – ToshDTU “Elektr mashinalari” kafedrasi mudiri,
t.f.d., professor.

K i r i sh

Ish unumdorligini oshirish yuqori darajali elektrlashtirilgan yangi texnologik jarayonlar va qurilmalarni ishlab chiqishni talab etadi. (Texnologiya – materiallarni ishlash vositalari va usullari haqidagi bilimdir). Elektr texnologiya–elektrning texnologik imkoniyatlari haqidagi fan bo‘lib, uning kelgusi taraqqiyotini elektr energiya ishlab chiqarishni ko‘paytirish, atrof–muhitga zararini kamaytirish talablari va isitish jarayonlarida yoqilg‘i ulushini kamaytirishning asosi hisoblanadi.

Bu fanning rivojlanish natijasida xalq xo‘jaligining metallurgiya, kimyo, mashinasozlik, yengil va oziq–ovqat va boshqa sohalarida ko‘plab miqdorda elektr texnologik qurilmalar ishlamoqda va moddalarni tubdan o‘zgartirishda elektr energiyaning samarali ishtiropini ta’minlamoqda.

Past haroratli plazma, elektron–ionli, impulsli va lazer texnikaning qo‘llanilishi tufayli yuqori unumdorli ekologik toza qurilmalar va ishlab chiqarishlar yangi avlodini barpo qiladi.

Yuqori malakali muhandis elektriklarni tayyorlash va bu rejalarни amalga oshirishda katta ahamiyat kash etadi. Ular zamonaviy ilmiy fikrleshinga, erudit siyaga va texnologik jarayonlarni (elektr toki o‘tadigan maydonlarida) boshqarishda yetarlicha bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Elektr texnologik qurilmalarning o‘ziga xos elektr jihozlari texnologik jarayon bilan uzviy ravishda bog‘langan va texnologiya asoslarini faqat chuqur tushungan holda ularni barpo qilish va ishlatish mumkin. O‘quv qo‘llanmamiz shu maqsadda tuzilgan. U elektr ta’minoti mutaxassislik talabalarini tayyorlash uchun mo‘ljallangan va «Elektr texnologik qurilmalar» fani dasturiga muvofiqlashgan.

I – amaliy mashg‘ulot

1. Qizitgich elementlarini hisoblash va tanlash

1.1. Qizdirgich elementlari qo'llanishi haqida ma'lumotlar.

Sanoat korxonalari va kommunal-xo'jalik ehtiyojlarida qarshilik elektr pechlari (QEP) asosan metalli qizdirgich elementlar (QE) bilan jihozlanadi. Shuning uchun bular misolida elektr hisoblash usulida to'xtalish darkor. QE ni hisoblash QE materiali va turini tanlash, uning o'lchamlarini (kesim, uzunligi); shuningdek pechning ichida QE joylanishini aniq bilish kerak bo'ladi. Hisoblash pechning bir fazasi uchun bajariladi. Uch fazali pech uchun hisob natijasini uchga ko'paytiriladi.

Dastlabki ma'lumotlar hisoblash uchun qizdiriladigan buyum harorati, pechning va mintaqaning quvvati, issiqlik hisoblash natijasida topilgan, ta'minot tarmog'ining kuchlanishi, qizitgich yotadigan yuzasi, ayrim hollarda kerakli ishslash muddati berilgan bo'ladi.

Turg'un (statsionar) holatda berilgan haroratda qizitgichga elektr quvvat kiritiladi.

$$P = V \cdot \left(P_H \cdot \frac{l}{S} \right), \quad (1.1)$$

ya'ni, buyumga qizitgichning yuzasidan o'tadigan issiqlik quvvatiga teng:

$$P = \omega \cdot F \cdot 10^3, \quad (1.2)$$

bu yerda, ω – qizitgichning solishtirma ustki quvvati, Vt/sm^2 ; F – qizitgichning ustki maydoni (yuzasi), m^2 ;


Qizitgichni hisoblashda w eng muhim dastlabki o'lchamdir. Boshqa teng sharoitlarda bu o'lcham orqali QE harorati va unga bog'liq holda ishslash muddati aniqlanadi. Faqat nurlanish yo'li bilan metallga qizitgichdan issiqlikni o'tkazishi ideal qizitgichning solishtirma sirtiy quvvatiga teng;

$$W = \frac{P}{F} = C_k \cdot \left[\left(\frac{T_k}{100} \right)^4 - \left(\frac{T_M}{100} \right)^4 \right] \quad Vt/sm^2, \quad (1.3)$$

bu yerda, P , F -QEning quvvati va yuzasi, Vt va m^2 ; T_k , T_m – oxirgi va boshlang'ich harorat, $^{\circ}\text{C}$. $C_t = \frac{5,7}{\frac{1}{E_q} + \frac{1}{E_m}} - t$ Vt/m^2 nur tarqatish keltirilgan koefitsiyenti: E_q , E_m – QE va qizdiriladigan materialning issiqlik nurlanishining koefitsiyentlari; 5,7-mutlaq (absolyut) qora jismning nurlanish xususiyati ($\text{Vt/m}^2\text{K}^4$).

Biroq real QE dan chiqayotgan hamma issiqlik buyumga o'tmaydi. Uning bir qismi issiqlik yo'qotishlariga sarflanadi. Bu qism nurlanish samaradorligi koefitsiyenti α , bilan o'lchanadi, shuning uchun real QE da

$$W = dcWda \quad (\text{Vt/sm}^2) \quad (1.4)$$



1.1 rasm. Ideal absolyut qora jism solishtirma sirtiy quvvat egri chizig'i

Bu yerda $\alpha=0,1-0,8$ – nurlanish samaradorligi koefitsiyenti, QE o'lchamlariga, uning pechda joylashishiga, qizdirilayotgan buyumning materialiga, issiqlik uzatish sharoitlariga bog'liq.

1.1 - rasmida ideal absolyut qora jism solishtirma sirtiy quvvat egri chiziq grafigi ko'rsatilgan. Real pech uchun ($F_b \neq F_m, P_{uu} > 0$).

QE ishlash muddati, berilgan haroratda tok o'tkazadigan kesimi oksidlanish hisobiga ma'lum miqdorga kamayadi (odatda 20 %ga).

Eng qulay, eng maqbul haroratlarda ishlatalganda ish muddati metalli QE lar 1000 soat, metall keramikalilar va korboundlilar – 2000 soatga teng

Odatda pechlarga qizdirgich elementlarni tayyorlashda 3-7 mm.li simlar qo'llaniladi. Lekin ishchi harorati 1000°C va yuqorililarida kamida 5 mm.ni olish kerak. Joylashtirishda sim diametri va spiral diametri hisobga olingan holda joylashtirishga qulay va mustahkam bo'lishi kerak.

1.1-misol

Berilgan qarshilik kamerali pech uchun nixrom simli qizdirgichning uzunligini va diametrini aniqlash.

Pech haqida dastlabki ma'lumotlar:

Kamera balandligi $h = 490$ mm, kamera diametri $d = 350$ mm, kamera chuqurligi $l = 350$ mm.

Yechish:

1. Pechning kamera hajmini aniqlaymiz.

$$V = h \cdot d \cdot l = 490 \cdot 350 \cdot 350 = 60 \cdot 10^6 \text{ mm}^3 = 60 \text{ l.}$$

2. Pech berishi kerak bo'lgan quvvatni aniqlaymiz.

Bu pech uchun 10-50 l hajmlilar solishtirma quvvati 100 Vt/l ni tashkil qiladi. 100-500 litrlarda 50-70 Vt/l. va 1000-60000 litr va solishtirma quvvati 10 Vt/l. Ko'rib chiqilayotgan elektr pechning solishtirma quvvati 100 Vt/l. SHunga ko'ra ko'rib chiqilayotgan pech qizdirgichining quvvati:

$$P = 100 \cdot 60 = 6000 \text{ Bm} = 6 \text{ kBm}$$

Odatda qizdirgichlar quvvati 5-10 kVt bo'lganida, bir fazali qilib yaratiladi. Katta quvvatlar esa uch fazali qilib.

3. Qizdirgichdan uzatiladigan tok kuchini aniqlaymiz.

$$I = \frac{P}{U} = \frac{6000}{220} = 27,27 \text{ A.}$$

4. Pech qizdirgichning qarshiligini aniqlaymiz

$$R = \frac{U}{I} = \frac{220}{27,27} = 8.067 \text{ Om.}$$

Ilovaning, 2-jadvalidan qizdirgich elementining ko'rsatkichlarini tanlaymiz: X15N60 d-diametri 3,0 mm, solishtirma qarshilik $\rho = 1,11 \text{ Om} \cdot \text{mm}^2/\text{m}$, ishchi harorati $-900-1125^\circ\text{C}$ qiymatlarini tanlaymiz:

5. Tanlangan d - 3,0 mm diametrli nixrom simning ko'ndalang kesim maydoni quyidagi formuladan aniqlaymiz:

$$S = 0,7854 \cdot d^2 = 0,7854 \cdot 3,0^2 = 7,068 \text{ mm}^2.$$

6. Nixromli simning uzunligini aniqlaymiz

$$L = \frac{R \cdot S}{\rho} = \frac{8,067 \cdot 7,068}{1,11} = 51,367 \text{ m}.$$

1.2 – misol

Bir fazali o'zgaruvchan tokli elektr qarshilik pechning elektr ta'minoti quyidagi ma'lumotga ega: quvvati $P_n = 50 \text{ kWt}$; kuchlanishi $U_n = 220 \text{ V}$; taqsimot qurilma shinasidagi kuchlanish $U_1 = 230 \text{ V}$, qarshilik pechi taqsimot qurilmadan $\ell = 75 \text{ m}$ masofada joylashgan.

Ochiq joylashtirilgan izolyatsiyalangan sim kesimini aniqlang.

Yechish:

1. Pech ta'minoti liniyani chegaraviy kuchlanish pasayishini aniqlaymiz:

$$\Delta U = \frac{(U_1 - U_n) \cdot 100}{U_1} = \frac{(230 - 220) \cdot 100}{230} = 4,35\%.$$

2. Bo'lim oralig'i 75 m uchun yuklanish momenti M ni aniqlaymiz:

$$M = I \cdot P_n = 0,075 \cdot 50 = 3,75 \text{ kWt} \cdot \text{km}.$$

3. Chegaralangan 1kWt.km da kuchlanish isrofi quyidagini tashkil qiladi:

$$\frac{\Delta U}{M} = \frac{4,35}{3,75} = 1,16 \%$$

4. Ilovaning 17-jadvalidan, SHE (shlang) izolyatsiyali kabelning solishtirma kuchlanish isrofi 1,16% bo'lgandagi mis sim ko'ndalang kesimi AAIIIb-4x70mm²

$$S = 70 \text{ mm}^2, I_{\text{davru}} = 262 \text{ A.} \text{ ni tashkil qiladi.}$$

5. Qabul qilingan sim kesimini chegaraviy qizishga tekshiramiz.

Buning uchun quyidagi formuladan foydalanamiz va shu bo'lim liniya davomiyligidagi tok kuchini aniqlaymiz.

$$I = \frac{P_n}{U_n} = \frac{50000}{220} = 227.4$$

Hovadagi 17-jadvaldan, ochiq joylashtirilgan ko'ndalang kesimi 70 mm^2 mis simning 262 A tok o'tkazishi mumkin, demak, 70 mm^2 kesimli mis sim qabul qilinishi mumkin chunki $262 > 227$.

1.3 – misol

Belgilangan qarshilik pechining kuchlanishi $U_{tar} = 220V$. va $U_{tar} = 380V$. ta'minot tarmoqqa uylanishidagi (nixromli sim) qizdirgichning tok kuchi va qarshiligini aniqlang.

Pech o'lchanilarini hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

Berilgan: $h = 1000\text{ mm}$, $d = 2000\text{ mm}$ va balandligi va chuqurligiga mos ravishda $l = 3000\text{ mm}$, tarmoq kuchlanishi $U = 220V$.

Yechish:

Pech kamerasi sig'imi hisoblash kerak:

1. Berilgan ma'lumotlarga ko'ra pechning sig'imi:

$$V = h \cdot d \cdot l = 1000 \cdot 2000 \cdot 3000 = 6000 \cdot 10^6 \text{ mm}^3 = 6000 \text{ l} (\text{o'lchov hajmi})$$

Energetik qoidalarga ko'ra: elektr pech hajmi 1000-6000 litr hajmlilarning solishtirma quvvatlari 10 Vt/l, 100-500 litr hajmlilar - 50-70 Vt/l., 10-50 litrlilarning solishtirma quvvati 100 Vt/l .

2. Qizdirgichning kerakli quvvatini aniqlaymiz.

Bu pechning sig'imi 60 l. solishtirma quvvati 100 Vt/l ni tashkil qiladi. Shunga ko'ra ko'rib chiqilayotgan elektr pech quvvati:

bu yerda, $V = 60\text{l}$.solishtirma quvvat 100 Vt/l.

$$P = 60 \cdot 100 = 6000 \text{ Vt} = 6 \text{ kW}$$

Odatda qizdirgichning quvvati 5-10 kW, va bular bir fazali qilib yaratiladi.

Tarmoqda quvvatni bir tekisda taqsimlash maqsadida katta quvvatlilar uch fazali qilib yaratiladi.

3. Qizdirgichdan o'tayotgan tok kuchini aniqlaymiz

$$I = \frac{P}{U} = \frac{6000}{220} = 27,27 \text{ A.}$$

bu yerda, P -qizdirgich quvvati, kVt, U-tarmoq kuchlanishi (liniya oxirida), 220 V.

4. Qizdirgichining qarshiligini aniqlaymiz:

$$R = \frac{U}{I} = \frac{220}{27,27} = 8,067 \text{ Om.}$$

Bunday holatlarda elektr tarmog'iga ularishning ikki varianti mavjud:

-bir fazali xo'jalik tarmog'i- ularish kuchlanishi U=220 va 380V;

-uch fazali sanoat korxona tarmoqlari -ularish U =220 V (nolli simga va fazaga) yoki U=380 V (xohlagan fazalar oraliq simiga).

Bunday variantlarda bittaga yoki uchta fazaga biriktirish alovida hisoblanadi.

5. Xo'jalik tarmoqlariga, biriktirilishida bir fazali tokda bajariladi.

$$I_{220} = \frac{P}{U} = \frac{6000}{220} = 27,27 \text{ A};$$

$$I_{380} = \frac{P}{U} = \frac{6000}{380} = 15,7894 \text{ A.}-\text{tok qizdirgich orqali o'tadi.}$$

6. Pechning qizdirgichi qarshiligini aniqlash zarur.

$$R_{220} = \frac{U}{I} = \frac{220}{27,27} = 0,8067 \text{ Om.} \quad R_{380} = \frac{U}{I} = \frac{380}{15,7894} = 2,406 \text{ Om.}$$

1.4 - misol

Qizdirgich qurilma uchun tanlangan qizdirgich elementning diametrini, qarshiligi va uzunligini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar:

Elektr qizdirgich jihozning quvvati P = 800 Vt; tarmoq kuchlanishi U = 220 V; qizdirgichning ishchi harorati 800°C. Qizdirgich element sifatida, jadval-2, X15N60 nixromli simni qabul qilamiz. d = 0, 35 mm va ρ = 1,11Om.mm²/m

Yechish:

1. Qizdirgich elementidan o'tadigan tok kuchi aniqlanishi kerak:

$$I = \frac{P}{U} = \frac{800}{200} = 3,63 \text{ A.}$$

2. Qizdirgichning qarshiligini aniqlash:

$$R = \frac{U}{I} = \frac{220}{3,63} = 61 \text{ Om};$$

3. Ma'lumotnomadan, 2-jadval. X15N60, $I = 3,63 \text{ A.}$ tok kuchi va qizdirgichning ishchi harorati $900-1125^{\circ}\text{C}$ uchun $d = 0,35 \text{ mm}$ li va kesim maydoni $S = 0,096 \text{ mm}^2$ nixromli simni tanlaymiz.

4. Tanlangan nixromli qizdirgich elementi uzunligini aniqlaymiz:

$$l = \frac{R \cdot S}{\rho} = \frac{61,0 \cdot 0,096}{1,11} = 5,3 \text{ m.}$$

bu yerda, R – o'tkazgichning elektr qarshiligi [Om], ρ - o'tkazgichning solishtirma elektr qarshiligi

$$\rho_{nixrom} = 1,11 \text{ Om} \cdot \text{mm}^2 / \text{m} \quad S = 0,7854 \cdot d^2 = 0,7854 \cdot 0,35^2 = 0,096 \text{ mm}^2;$$

5. Tanlangan nixrom simning qarshiligini aniqlaymiz

$$R_{qizd} = \frac{\rho \cdot l}{S} = \frac{1,11 \cdot 5,3}{0,096} = 61,28 \text{ Om.}$$

bu yerda, R_{qizd} – simning elektr qarshiligi[Om], ρ – o'tkazgich simni solishtirma elektr qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{mm}^2/\text{m}$

6. Olib borilgan hisob-kitoblar natijasiga ko'ra qizdirgichning quyidagi uzunligini qabul qilamiz:

$$L = 5,3 \text{ m.}$$

1.5 – Misol.

Qizdirgich qarshilik pechning qizdirgichi uzunligi, qarshiligi va $U_2 = 380 \text{ V}$ kuchlanishli alyumin simning kesimini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar:

Elektr qarshilik pechning quvvati 120 kVt , quvvat koefitsiyenti $\cos\phi = 0,9$ va eng ko'p ishchi harorati 750°C . Pechning elektr ta'minoti pechdan $l = 150 \text{ m.}$ da joylashgan $U_1 = 400 \text{ V}$ li shitdan uch fazali havo liniyadan ta'minlangan.

Yechish:

1. Havo liniyaning yuklanish momentini aniqlash:

$$M = I \cdot P = 0,15 \cdot 120 = 18 \text{ kVt.km};$$

2.Kuchlanishning nisbatan chegaralangan foizli pasayishini hisoblaymiz.

$$\Delta U = \frac{(U_1 - U_2) \cdot 100}{U} = \frac{(400 - 380) \cdot 100}{400} = 5\% \text{ yoki } 1 \text{ kVt.km};$$

$$\frac{\Delta U}{P} = \frac{5}{18} = 0,227\%$$

Ilovaning II-jadvalidan kuchlanishni $\cos\varphi = 0,9$ dagi solishtirma isrofi 0, 2% ni qabul qilamiz va alyumin simning yaqinroq standart kesimi 50 mm^2 $I_{d_{rux}} = 210 \text{ A}$ ni tashkil qiladi.

3.Tok kuchini aniqlaymiz.

$$I = \frac{P}{\sqrt{3} \cdot U_2 \cdot \cos\varphi} = \frac{120}{\sqrt{3} \cdot 380 \cdot 0,9} = \frac{120}{592,36} = 202,57 \text{ A}.$$

Ilovadan alyuminli simning kesimi 95 mm^2 ruxsat etilgan davomli toki 330 A , 50 mm^2 lini qabul qilamiz va uning ruxsat etilgan davomli toki 210 A tashkil qiladi. Ya'ni, tanlangan 50 mm^2 kesimli simni qo'llash mumkin. Chunki $210 > 202$. Alyumin simning solishtirma qarshiligi 1 kVt.km ga 0,234% ni tashkil qiladi. U holda haqiqiy kuchlanish isrofi keltirilganidan kichik bo'ladi:

$$\Delta U = P \cdot \Delta U_{km} = 18 \cdot 0,234 = 4,21\%.$$

4. 2-jadvaldan, qizdirish element sifatida X20N80-N nixrom simni qabul qilamiz.

1000°C haroratgacha ishlovchi qizdirgichlar diametri $d = 3 + 5 \text{ mm}$ dan kichik bo'lmasligi kerak, shu sababli $d = 5 \text{ mm}$ liniyani tanlaymiz va uning kesimi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$F = 0,7854 \cdot d^2 = 0,7854 \cdot 5^2 = 0,196 \text{ mm}^2.$$

5.Tanlangan qizdirgich simning to'la qarshiligini aniqlaymiz:

agar $\rho_{nixr} = 1,13 \text{ Om.mm}^2/\text{m}$ bo'lsa,

$$R_{qizish} = \frac{\rho \cdot l}{S} = \frac{1,13 \cdot 202}{0,196} = 1164,59 \text{ Om}.$$

Chunki pech uch fazali hisoblanadi shu sababli qizdirgich qarshiligi uchga bo'linadi, ya'ni har bir fazaga.

$$\frac{R}{3} = \frac{1164,59}{3} = 388,197 \text{ } Om.$$

6.Qizdirgichni umumiy uzunligini aniqlaymiz:

$$L = \frac{R \cdot S}{\rho} = \frac{1164,59 \cdot 0,196}{1,13} = 202 \text{ m.}$$

Qizdirgichning har bir faza uchun uzunligini aniqlaymiz:

$$l = \frac{L}{3} = \frac{202}{3} = 67,33 \text{ m.}$$

1.2 Elektr qarshilik pechlariga qizdirgich elementlarini hisoblash va tanlash

1.6 - misol

Dastlabki ma'lumotlar:

$$P_n = 17 \text{ kWt}$$

$$U_n = 380 \text{ V}$$

$$t_R = 800^\circ \text{ C}$$

Pechning (ichki) o'lchamlari:

Eni 0,8 m.

Balandligi 0,6 m

Aniqlang:

Asosiy elektr kattaliklari: U_b , U_f , R_b , R_f , P_f

Qizdirgich elementining parametrlari d , W , L_f , R_f , W_d

Pech ichida qizdirgich elementini joylashtirish usuli va massasi.

Qizdirgich elementining kengligini qalinligiga nisbati, m

Yechish:

1. Asosiy elektrik kattaliklarini aniqlash:

a) Formulalarda liniya yuklanishini va faza toklarini aniqlash:

$$I_f = \frac{P_n}{U_n} = \frac{17 \cdot 10^3}{380} = 44,8 \text{ A.}$$

$$I_f = \frac{P_f}{U_f} = \frac{I_f}{\sqrt{3}} = \frac{44,736}{\sqrt{3}} = 25,858 \text{ A.}$$

$$R_f = \frac{U_f^2}{P_f} = \frac{380^2}{17 \cdot 10^3} = 8,494 \text{ Om.}$$

$$R_f = \frac{U_f^2}{P_f} = \frac{220^2}{5,66 \cdot 10^3} = 8,55 \text{ Om, buyerda, } P_f = \frac{P_n}{3} = \frac{17}{3} = 5,66 \text{ kVt}$$

bu yerda, P_n -pechni nominal quvvati, kVt; U_f - liniya kuchlanishi, V; U_f faza kuchlanishi, V.

b) 2-jadvaldan dumaloq kesimli qizdirgich elementini tanlaymiz X15N6O-N va $t_c=950^\circ\text{C}$; solishtirma qarshiligi $\rho_{20}=1,12 \text{ mkm} \cdot \text{m}$; elektr qarshiligini to'g'rilash koefitsiyenti $\alpha=1,089$ va $t_p=800^\circ\text{C}$ tabl.

4.

2. Qizdirgich elementlar parametrlarini aniqlash.

2.1.Pechning quvvatiga bog'liq ravishda (tasmali yoki simli) shakli tanlanadi (9,10- jadval).

Dumaloq kesimlining diametri(spiral yoki ilon izi ko'rinishida)

$$d = \sqrt{\frac{4P_f^3 \cdot \rho_{qizish}}{\pi^2 \cdot U_f^2 \cdot W_d}}$$

bu yerda, ρ_{qizish} - materialning qizigan holatidagi solishtirma elektr qarshiligi, $\text{Om} \cdot \text{m}$; W_d - qizdirgichning chegaralangan solishtirma yuza quvvati, Vt/m^2

P_f - fazadagi quvvat, Vt .

$$\rho_{qizish} = \rho_{20} \cdot \alpha = 1,12 \cdot 1,089 = 1,219 \cdot 10^{-6} \text{ Om mm}$$

bu yerda, $\alpha=800^\circ\text{C}$ dagi elektr qarshilikni to'g'rilash koefitsiyenti $\alpha=1,089$ 4-jadval.

X15N6O-N. nixromli qotishma uchun $\rho_{20}=1,12 \text{ mkm} \cdot \text{m}$ 2-jadval uchun

$$W_d = \varepsilon_{iss,nur} \cdot W_s \cdot \alpha_{iss,qarsh} = 0,33 \cdot 0,58 \cdot 0,68$$

bu yerda, $\alpha_{iss,qarsh}=0,685$ - jadvaldan ,

$$W_s = 0,58 Vt / sm^2 \quad \text{rasm. 1.1}$$

$$\varepsilon_{\text{izdirmur}} = \frac{1}{\frac{1}{E_n} + \frac{1}{E_{\text{max sular}}} - 1} = \frac{1}{\frac{1}{0,5} + \frac{1}{0,5} - 1} = 0,333$$

$$d = \sqrt{\frac{4 \cdot 5,66^2 \cdot 10^6 \cdot 1,219 \cdot 10^{-6}}{3,14^2 \cdot 220^2 \cdot 0,131}} = 1,36 \text{ mm}$$

2-jadvaldan dumaloq o'zak kesimli X15N60-N $\alpha=1,4 \text{ mm}$ tanlaymiz.

2.2. Qizdirgich elementning uzunligini aniqlash.

$$L_f = \frac{R \cdot \pi \cdot d^2}{4 \cdot \rho_{\text{qizish}}} = \frac{\pi \cdot U_{\text{o'r}}^2 \cdot d^2}{4 \cdot P_f \cdot \rho_{\text{qizish}}} = \frac{3,14 \cdot 220^2 \cdot 1,4 \cdot 10^{-3}}{4 \cdot 5,66 \cdot 10^3 \cdot 1,219 \cdot 10^{-3}} = 7,489 \text{ m}$$

bu yerda, R – qizdirgich elementning qarshiligi.

2.3.Tasmali yassi yoki to'g'ri to'rt burchakli o'zak qizdirgich elementining kesimini; kesim o'lchami.

$$a = \sqrt{\frac{P_f^2 \cdot \rho_{\text{qizish}}}{2m \cdot (m+1) \cdot U_f^2 \cdot W_d}}, \text{m}$$

bu yerda, $m = a/b$ – qizdirgich elementining kengligini qalinligiga nisbatini rasm-1.2. va 9, 10 –jadvalda keltirilgan.

2.4. Tasmani (yoki o'zakning) faza boshida belgilangan.


$$L_f = \frac{R \cdot S}{\rho} = \frac{U_{\text{o'r}}^2 \cdot m \cdot a^2}{P_f \cdot \rho_{\text{qizish}}}, \text{m}$$

2.5. Qizdirgich elementning qarshiligini aniqlash.

$$R_f = \frac{\rho \cdot L_f}{C} = \frac{1,719 \cdot 10^{-6} \cdot 7,489}{1,53 \cdot 10^{-6}} = 5,45 \text{ Om}$$

$$\text{bu yerda, } S = F = \frac{\pi \cdot d^2}{4} = \frac{3,14 \cdot 1,4^2}{4} = 1,539 \text{ mm}^2$$

Qizdirgich elementini kamerada joylashtirish usuli, spiral simli va tasmali ilon izli qizdirgichning konstruktiv tuzilish o'lchamlariga bog'liq.



1.2- rasm. Qizdirgichlarning yaratilish sxemasi: a - simli spiral; b - simli ilon izli; c - tasmali ilon izli. D, A, S ko'rsatkichlarini 9 va 10 -jadvaldan aniqlaymiz

3. Issiqdan izolyatsiyalovchi materiallar va qizdirgich elementini solishtirma yuza quvvati va ularni tanlash.

a) Qizdiriladigan mahsulotni va ideal qizdirgichning solishtirma quvvatini hisoblash.

$$W_{id\ qizish} = \varepsilon_{iss.\ mur} \cdot W_s = 0,333 \cdot 5,8 = 1,93 \text{ Vt/sm}^2; \quad W_s = 5,3 \text{ Vt/sm}^2$$

bu yerda, $\varepsilon_{iss.\ qizish}$ - issiqlik nurlanishining keltirilgan **koeffitsiyenti**.

W_s - ikki absolyut qora tana issiqlik almashuvidagi solishtirma yuza quvvati. [4] G. 1.4, rasm. 1.8.

b) Qo'llaniladigan issiqdan himoyalovchi materiallar va ularni montaj qilish ko'rsatmasi [4] G. 1.4., 1.5.2. dan.

c) Tok o'tkazgichlar kesimi va ishga tushirish – rostlagich jihozlar hisobi [4] G- 2.3, 2.5, bo'yicha bajariladi.

«Elektr texnologik qurilmalari» fanidan qarshilik pechlarni qizdirgich elementlarini hisoblash va tanlash uchun topshiriq

I-jadval

Ma'lumotlar nomi	Topshiriq												
	01	02	03	04	05	06	07	08	09	10	11	12	13
Pechning quvvati, P_n , kWt	1,6	1,8	1,65	1,55	1,7	5,5	9,3	13,1	10,9	8,6	7,7	7,5	13,5
Ta'minot tarmoq kuchlanishi, V	220	380	220	380	220	380	380	660	380	660	380	660	380
Pechning ishchi harorati T_p , °C	450	450	450	450	450	450	450	450	450	450	450	450	450
Pech o'lehamlari:	0.5	0.6	0.55	0.52	0.6	0.7	0.7	0.9	0.68	1,4	0.8	1,5	0.9
Kengligi, m	0.4	0,5	0,5	0,42	0,4	0,5	0,6	0,6	0,5	1,0	0,6	1,2	0,75
Balandligi, m													
$m = a/b$	6	6	7	5	5	6	8	2	1	8	7	5	5
Ma'lumotlar nomi	Topshiriq												
	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26
Pechning quvvati, P_n , kWt	5,7	9,6	2,7	10,7	8,1	7,3	3,9	3,5	46	3,6	18	4,5	53
Taminot tarmoq kuchlanishi, V	220	660	380	660	220	380	220	660	660	220	380	220	380
Pechning ishchi harorati T_p , °C	800	660	790	870	960	000	690	1115	1120	500	700	660	1100
Pech o'lehamlari:	0.5	0.75	0.92	0.82	0.6	0.5	0.4	1.7	1.9	0.5	0.9	0.55	1.21
Kengligi, m													
Balandligi, m	0.35	0.6	0.7	0.7	0.4	0.3	0.35	1,3	1.5	0.3	0.6	0.4	0.8
$m = a/b$	6	9	10	11	8	7	7	15	15	5	6	5	1

Nazorat savollari

1. Qizdirgich elementlar qanday materiallardan tayyorlanadi?
2. Qizdirgich elementlarga qo'yiladigan talablar?
3. Metallkeramikali qizdirgich elementlari afzalliklari.
4. 650^0 C gacha haroratlarda qanday metalli qizdirgich elementlar qo'llaniladi?
5. Tasmali qizdirgich elementlarning qo'llanilishi.
6. Metall simli qizdirgich elementlar pechlarda qanday va qayerga mahkamlanadi?
7. Qizdirgich elementlarning ishlash muddatini oshirish uchun qanday qoidalarga rioya qilinishi kerak?

2- amaliy mashg'ulot

2. Qarshilik elektr pechlarning issiqlik energiya sarfini hisoblash

2.1. Qarshilik pechlari haqida qisqacha ta'rif

1. Ish turi bo'yicha - davriy ishlaydigan pechlar va uzlusiz ishlaydigan pechlar;

2. Ish harorati bo'yicha – past haroratli ($650-700^{\circ}\text{C}$ gacha), o'rta haroratli (1250°C gacha), yuqori haroratli (2500°C gacha) pechlar. Past haroratli pechlarda issiqlik konveksiya orqali uzatiladi; o'rta haroratlilarda nurlanish va konveksiya orqali; yuqori haroratlilarda faqat nurlanish orqali oshiriladi. O'ta yuqori haroratlarda ishlash uchun maxsus pechlar va qurilmalar yaratiladi;

1. Ish atmosfera bo'yicha – havo muhitli va vakuumli;

2. Texnologik vazifasi bo'yicha – eritadigan va termik ishlov beradigan pechlar;

3. Konstruktiv tuzilish bo'yicha: a) davriy pechlar-kamerali, shaxtali, qopqoqli, tagligi ajralib chiqadigan, tagligi ko'tariladigan (elevatorli), tigelli (tuvakli) va boshqalar; b) uzlusiz pechlar – konveyerli, to'rtikili, tortuvchi, barabanli (mashina va mexanizmlarning silindr shaklidagi qismi), karuselli-tagligi olinmaydigan, tagligi pulschanuvchi, rolgangli (rolikli) va boshqalar.

Hanima QEP pechning ishchi hajmiga qizdirilayotgan buyumlarni joylashtirish usuli va mexanizmlari bir-biridan farqlanadigan pechlarning o'lchamlari va quvvatlari qizdirilayotgan materialning kerakli samaradorligi, qizitish darajasi va issiqlik fizik tavsiflari asosida aniqlanadi.

Eritish pechlar yengil eriydigan rangli metallar va qotishmalar, shuningdek nodir metallarni eritish uchun qo'llanadi.

Termik pechlar qora va rangli metallar, shina, keramik (loydan tayyorlanadigan buyumlar), kimyoviy issiqlik jarayonlari, buyumlar


quritish, oziq-ovqat sanoatidan va boshqada termik ishlov berish uchun xizmat qiladi.

2.2. Bilvosita qizitish va qarshilik pechlari

Sanoat va kommunal xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlataladigan asosiy pechlarning ko'pehiligini bilvosita qarshilik pechlari tashkil etadi.

Ular quyidagilarga bo'linadi: a) qattiq qizitgichlar konveksiya yoki nurlanish orqali qizitadigan pechlar; b) issiqlik o'tkazuvchanlik hisobiga qizdiriladigan jism suyuq muhitda qizitish pechlari; v) qaynovchi qatlama qizitish pechlari.

Oxirgi turdag'i pechlar ikkita tuzilishi bo'lishi mumkin. Birinchisi – issiqlik qizitgichlarda ajraladi, keyin esa qaynaydigan qatlama orgali harorat buyumga o'tkaziladi. Ikkinchisi – issiqlik ajralishi elektr tokining bevosita qaynaydigan qatlamdan o'tayotganda sodir bo'ladi. Qatlama sifatida elektr o'tkazuvchanlik kukunlar, masalan grafit ishlataladi.




2.1- rasm. Kamerali pech.

1-eshikcha; 2-yon tomon qizdirgichi; 3-ship qizdirgichi;
4-futerovka; 5-tana;
6-qizdirgichlarning chiqish qutichasi; 7-gaz keltirgich; 8>tag qizdirgichlari; 9-tag plitasi;
10-termopara

2.3. Davriy ishlovchi pechlar.


Davriy-(sudkali) ishlaydigan pechlarda qizdirilayotgan jism qizitish jarayoni davomida o'z o'mini o'zgartirmaydi. Pech davriy ishlaydi: unda yuklanadi, termik ishlov beriladi va yuksizlantiriladi.

Sanoat korxonalarida eng ko'p tarqalgan davriy ishlaydigan pechlardan biri, bu kamerali elektr qarshilik pechlari hisoblanadi. Bu pechlarning keng qo'llanilishiga asosiy sabab konstruktiv tuzilishi oddiyligi va ishlatalishda foydalanishga qulayligi.



2.2-rasm. 1260°C da ishlovchi tagi suriladigan kamepali elektr pechi

a



2.3-rasm. Qalpoqli elektr pechi.

1-qalpoq, 2-qizdirgichlarni ilgaklarga joylashtirilishi; 3-mufel

Kamerali pechlari yigirmadan ortiq turli o'lchanli unumiy ishlabchiarishli qilib yaratiladi, ishchi fazosi keng oraliqli o'lchanli ishchime-yorli haroratlari 300 dan 1500°C gacha bo'ladi. Kamerali pechagregatlari va to'plamlari – o'rta va kam seriyali ishlab chiqarishlarda, odatda xilma-xil va nisbatan kam miqdorda maxsus ishlab chiqariladigandetallarga ishlov berishda qo'llaniladi, bu esa goho harorat va gaz miqdorlari sarfi jarayonlarini o'zgartirib turishni talab qiladi.

Kamerali pechlari mexanizatsiyalashtirilmagan shu sababli pechlarda solishtirma elektr energiya va nazoratlanadigan gaz sarfi yuqori bo'lishi tabiiy.

2.4. Uzluksiz ishlovchi pechlar

Uzluksiz-(metodik) ishlaydigan pechlarda qizdirilayotgan buyumlar uzluksiz yoki davriy yuklash darchadan bo'shatish darchagacha o'tkaziladi. Bu pechlar murakkabroq, lekin davriy pechlarga nisbatan samarali, shuning uchun ular ommabop va seriyali ishlab chiqarishlarda qo'llanadi.

2.4-rasmda ishchi harorati 700°C gorizontal konveyerli elektr pech sxemasi keltirilgan.

Konveyerli elektr pech – eng ko'p tarqalgan pechlarga kiradi. Ular asosan kichik va o'rta o'lchamli ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan buyumlar, masalan zoldirlar g'ilofslari doirasini va shunga o'xshash buyumlarga termik ishlov berish uchun qo'llaniladi.

Konveyerli pechlarda $700\text{-}900^{\circ}\text{C}$ haroratlarda yuqori haroratlari bo'shatish va toplash jarayonlari olib boriladi.

Pech ichida detallarni harakatga keltirish uchun ikkita o'qqa tasma tortilgan, ularning bittasi tortuvchi va ikkinchisi ergashuvchi, tasmalari qoliplangan bo'g'inlardan tuzilgan va konveyer yo'nalishida ko'ndalang o'rnatilgan yuritmasiz g'ildiraklarga tayanadi.


Konveyer ikkala o'qi bilan EQP ichiga joylashtirilishi mumkin. Bu holatdagi kamchilik ikkala o'q ishlash mintaqasi yuqori harorat ostida og'ir sharoitda ishlaydi. Yondashishga noqulayligi ta'mirlashga ham imkoniyati chegaralangan va buyumlarni issiq konveyerga yuklash qiyinchilik tug'diradi.

Bundan tashqari bu turdag'i tuzilishlilarda, odatda o'qlar suv bilan sovitiladi, bu esa sezilarli darajada issiqlik yo'qolishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun, konveyerning ikkala o'qlarini yuqori harorat mintaqasidan pastiga (tashqariga) chiqariladi.

Bu holatdagi tuzilishda esa konveyerga kelayotgan issiqlik, issiqlik yo'qolish mintaqasidan chiqishda to'la chegaralanadi. Issiqlik yo'qolishini kamaytirish uchun harorati 900°C li asosan ishchi harorati 1150°C konveyerli EQP lar qo'llaniladi.

EQP konveyerlar 350, 700, 900 va 1150°C haroratlarga kengligi 60 dan 2000 mm li va uzunligi 1 dan 10 m gacha bo'ldi.



2.4-rasm Rolgangli elektr pech:

1 - futerovka; 2 - qizdirgich, 3 - rolgang, 4 - tana, 5 - rolgangning yuritmasi; 6 - sovutish kamerasi; 7 - suv bilan sovutish tizimi; 8 - eshik

2.1 – misol

Elektr suv isitgichdan mahsulot olgan issiqlik miqdori va sarf bo'lgan isitish quvvatini aniqlash.

Suvning isitgich hajmini bilgan holda, fizik standart formulalaridan foydalananib, suvni isitish vaqtidagi energiya o'zgarishidagi kabi quvvatni hisoblash kerak.

Dastlabki ma'lumotlar:

Boshlang'ich suv harorati $t_1 = 18^{\circ}\text{C}$,

Isitilish harorati $t_2 = 80^{\circ}\text{C}$

Suv hajmi $V = 100 \text{ l}$.

Suvning solishtirma issiqlik sig'imi $c = 4183 \text{ Dj kg}^{-1} \text{K}^{-1}$.

Yechish:

1. Isitishdagi boshlang'ich va oxirgi harorat farqini aniqlaymiz.

$$\Delta T = t_2 - t_1 = 80 - 18 = 62^{\circ}\text{C}$$

2. Q -isitishda mahsulot olgan issiqlik miqdori.

$$Q = c \cdot V \cdot \Delta T = 4183 \cdot 100 \cdot 62 = 25\,394\,600 \text{ Dj.}$$

3. Isitish quvvati

$$N = \frac{Q}{\tau} = \frac{25\,394\,600}{3600} = 7\,204 \text{ W} = 7,2 \text{ kW.}$$

bu nuqtada, N – isitish quvvati, Vt ; τ – isitish olib borilgan vaqt oralig'i, bu davrda isitish olib boriladi, sek.

Yirik sig'imi uchun va isitgichning kichik quvvatli elementida, bundan tashqari issiq izolyatsiyalanmagan asosiy sababi parametri issiqlik isrofi hisoblanishi mumkin, kVt sutkalarda. Uning texnik hujjatlaridagi qiymatlarini SU birligiga o'tkazish kerak, ya'ni $Vt.ga$. $(1000/24 = 41,666\dots)$ ko'paytiladi) va elektr quvvatidan ayirish qizitish elementida:

$$N = N_{qe} - \frac{1000}{24} \cdot Q_c \cdot Vt$$

bu yerda, N_{qe} – qizitish elementning quvvati, Q_c - suv issitgich idishi sig'imidagi issiqlik isrofi, kVt s/sutkalarda. Chunki xo'jalik suv isitgichlar hajmi 1000 l gacha va ularning isrofi 1,5 $kVt.s$ /sut. (62 Vt) dan oshmaydi, shu sababli odatda issiqlik isrofi hisobga olinmaydi.

Yakuniy variant uchun hisoblash quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\tau = \frac{cm \cdot (T_2 - T_1)}{N_{full} - \frac{1000 \cdot Q_c}{24}}$$

Bu universal formula bo'lib, suv isitgichlarni ishlatalishda va tanlashdagi har xil savollarga javob berishi mumkin:

Belgilangan haroratgacha idishdagi (boylerdagi) suvni isitishga qancha vaqt talab qilinadi?

Talab qilingan haroratgacha isitishda, isitish elementiga qancha quvvat talab qilinadi?

Kerakligicha yetarli isitish uchun qancha sig'imi uchun isitish kerak bo'ladi?

Bu savollarga javob sifatida universal formulalardan ajratib olingan ifodalar qo'llaniladi (chunki qaynagan emas, qaynoqqa qo'shilgan suv talab qilinmoqda): $sm_2(t_3 - t_2) + sm_1(t_3 - t_1) = 0$, bunda 1,2 va 3 indekslar mos ravishda idishdagi sovuq, isitilgan va aralashtirilgan suvni bildiradi.

Xonadonlardagi suv isitgichni isitish vaqtini hisoblash

2.2 – misol.

Keltirilgan formula natijalariga ko‘ra: $v=860$ l suvni 1 kVt soatda 1K ga isitadi;

Moslashtirilgan emperik formula bilan, t vaqt (soatlarda), suvni to‘la isitish uchun idishdagi jamlagichli suv isitgichdagi, quyidagicha aniqlanadi:

$$t = 0,00116 \cdot \frac{V \cdot (T_2 - T_1)}{W}$$

bu yerda, V – idish hajmi (l); t_2 - isitilan suv harorati (odatda 60°C); t_1 - boshlang‘ich sovuq suv harorati 18°C; W-isitgich elementning elektr quvvati 15 kVt deb qabul qilinganda

$$t = 0,00116 \cdot \frac{860 \cdot (60 - 18)}{15} = \frac{0,00116 \cdot 361200}{15} = \frac{41,899}{15} = 2,793 \text{ soat}$$

10 kVt gacha bo‘lgan suv isitgichlar bir fazali qilib, 12-30 kVt va yuqorilari uch fazali qilib yaratiladi.

2.3 –misol

10 kVt gacha suv isitgichlar 220 V bir fazali, va 380 V uch fazali qilib yaratiladi va uning quvvati 12-30 kVt ga yetadi.

Idishdan oqib o‘tuvchi elektr suv isitgichlar bir fazali 220 V va 380 V uch fazali qilib yaratiladi.

Dastlabki ma’lumotlar:

Agar maksimal suv oqish hajmi V = 100 l/min, oqib o‘tuvchi suvning elektr qizitish jihozning berilgan quvvati W = 11,0 kVt.

Zaruriy quvvat va isitish vaqtini aniqlang

Yechish.

Buning hajmini quyidagi formuladan hisoblash mumkin:

$$V = 14,3 \cdot \frac{W}{T_2 - T_1}$$

1.Qancha haroratga isitilishi kerakligini aniqlaymiz.

$$\Delta T = t_2 - t_1 = 65 - 18 = 47^\circ C.$$

bu yerda, t_2 – suv oladigan harorat $- 65^\circ C$, t_1 – suv issitgichga kirishdagi suv harorati $-18^\circ C$; ;

W – qizdirgich elementning elektr quvvati $11,0 \text{ kVt}$.

$$V = 14,3 \cdot \frac{11,0}{47} = 3,346 \text{ l}$$

Bunday rejimda suv isitilishida, ya'ni suvni $35-45^\circ C$ ga isitishda, isitgich element quvvatini $2,5 \pm 3$ marta ko'piga qabul qilish kerak, chunki suvning sarfi $1/\text{min}$ ga ko'p. Masalan, dushga suv sarfi 10 l/min deb olinganida suv isitish jahozi 20 kVt quvvatni talab qiladi.

2. Qabul qilingan $11,0 \text{ kVt}$ quvvat bo'yicha qizitish vaqtini aniqlaymiz.

$$t = 0,00116 \cdot \frac{100 \cdot (65 - 18)}{11} = \frac{0,00116 \cdot 4700}{11} = \frac{5,452}{11} = 0,495 \text{ ch}$$

2.4 - Misol

Uchta bir fazali qarshilik pechlari, quvvat koeffitsiyenti $\cos\varphi = 1$ va quvvatlari $30, 60$ va 90 kVt li mos ravishda A, B, C. fazalarga biriktirilgan. P_{un} fazalardagi o'rnatilgan nominal quvvatni aniqlang.

Yechish:

1. Eng ko'p yuklangan bu, C faza. ya'ni $P_{mf_n} = 90 \text{ kVt}$, demak uchala faza uchun:

$$P_{un} = 3 \cdot P_{mf_n} = 3 \cdot 90 = 270 \text{ kVt}.$$

2. Bir fazali elektr iste'molchilar P_{un} liniyalarini shartli ravishda uch fazali kuchlanishiga ulagandagi nominal quvvati P_{un} elektr iste'molchilar soni bittadan uchtagacha bo'lganida, imkonli boricha uch fazali tizimni har xil yelkalarga teng yuklamada ulanishi, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$P_{un} = \sqrt{3} \cdot P_{max \text{ yu}} = 1,73 \cdot 90 = 155,7 \text{ kVt}.$$

elektr iste'molchilar soni ikkita yoki uchta bo'lganida:

$$P_{un} = 3 \cdot P_{max \text{ yu}} = 3 \cdot 90 = 270 \text{ kVt}$$

bu yerda, $P_{max \text{ yu}}$ – eng ko'p yuklangan fazadagi elektr iste'molchilar nominal quvvati, kVt .

Shartli ravishda uch fazali nominal quvvat P_{un} eng ko'p yuklangan ikki yelkalardagi quvvatlar P_{n1} va P_{n2} keltirilgan formula orqali aniqlanadi:

$$\begin{aligned} P_{un} &= \sqrt{3} \sqrt{P_{n1}^2 + P_{n2}^2 + P_{n1} \cdot P_{n2}} = 1,73 \sqrt{30^2 + 60^2 + P_{n1} \cdot P_{n2}} = \\ &= 1,73 \sqrt{900 + 3600 + 30 \cdot 60} = 1,73 \sqrt{4500 + 1800} = 1,73 \sqrt{6300} = \\ &= 1,73 \cdot 79,372 = 137,314 \text{ kNm}; \end{aligned}$$

2.5 Davriy ishlovchi EQP ning o'rnatilgan quvvatini hisoblab aniqlash

2.5 – misol.

Po'lat buyumlarni bo'shatish oldidan 230°C gacha qizdirgichga mo'ljallangan metodik pechning o'rnatilgan quvvatini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar:

Unumdarlik $\Pi=0,139 \text{ kg/sek}$;

Pechning issiqlik FIK $\eta_t=0,72$;

Pechning elektr FIK $\eta_e=0,95$;

Po'latning solishtirma issiqlik sig'imi $C_{pu}=490 \text{ Dj/kg} \cdot {}^{\circ}\text{C}$ ($20-230^{\circ}\text{C}$ ko'lamidagi haroratlarda).

Yechish

1. Pechning foydali quvvatini aniqlash

$$P_f = \Pi \cdot C_n \cdot (t_2 - t_1), \left[\frac{\text{kg}}{\text{c}} \cdot \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot {}^{\circ}\text{C}} \cdot {}^{\circ}\text{C} = \frac{\text{J}}{\text{c}} = Vt \right]$$

bu yerda, Π - unumdarlik, kg/s ; C_n - solishtirma issiqlik sig'imi, $\text{kkal/kg} \cdot {}^{\circ}\text{C}$; t_1 - boshlang'ich harorat, ${}^{\circ}\text{C}$; t_2 - oxirgi harorat, ${}^{\circ}\text{C}$.

$$P_f = 0,139 \cdot 460 \cdot (230 - 20) = 143031 \text{ Jt}$$

1. Iste'mol qilinadigan quvvatni aniqlash, Vt

$$P_i = \frac{P_f}{\eta_e \cdot \eta_t} = \frac{14303,1}{0,95 \cdot 0,72} = 20910,96 \text{ Jt}$$

bu yerda, η_e - elektrik FIK; η_t - termik FIK.

2.O'rnatilgan quvvatni aniqlash

$$P_o = k_z \cdot P_i = 1,2 \cdot 20910,96 = 25093,16 \text{ Jt}$$

bu yerda, k_z - zaxira koefitsiyenti ($k_z=1,2$ deb qabul qilamiz).

Uzluksiz ishlovchi EQP ning o'rnatilgan quvvatini hisoblash

2.6 - misol

Buyumlarni quritishga mo'ljallangan (konveyerli) uzluksiz ishlovchi qarshilik elektr pechning o'rnatilgan quvvatini aniqlash.

Dastlabki ma'lumotlar:

konveyer – metalli;

konveyer materialining issiqlik sig'imi $C = 477 \text{ Dj/kg} \cdot {}^{\circ}\text{C}$;
boshlang'ich harorat $t_1 = 20 \text{ } {}^{\circ}\text{C}$;

quritish harorati $t_2 = 200 \text{ } {}^{\circ}\text{C}$;

nam metall buyumlar quritiladi;

buyum materiallarining o'rtacha issiqlik sig'imi $C_m = 963 - (20-200 \text{ } {}^{\circ}\text{C})$ haroratlar oralig'ida);

bir soat davomida 300 kg buyum qizdiriladi;

svuning o'rtacha issiqlik sig'imi $C_{\text{suv}} = 4,187 \cdot 10^3 \text{ Dj/kg} \cdot {}^{\circ}\text{C}$;

namlikning bug'lanish tezligi $v = 4,16 \cdot 10^{-3} \text{ kg/sek.}$;

svuning yashirin bug'lanish issiqligi $\lambda = 2,26 \cdot 10^6 \text{ Dj/kg}$;

atmosfera bosimidagi suv bug'ining o'rtacha issiqlik sig'imi (100 dan 200 ${}^{\circ}\text{C}$ gacha haroratlar oralig'ida) $C_v = 2012 \text{ Dj/kg} \cdot {}^{\circ}\text{C}$;

pech ichida bir soat oralig'ida to'rt karrali havo almashuvi amalga oshiriladi;

pech sig'imi 100 m^3 ;

quruq havoning zichligi $\gamma_{q,\text{havo}} = 1021 \text{ kg/m}^3$;

pechning tashqi yuzasidagi issiqlik quvvat yo'qolishi foydali quvvatning 20% ni tashkil qiladi.

Yechish.

1.O'rnatilgan quvvat

$$P_o = k_z \cdot P_{is} \quad Vt$$

bu yerda, k_z - zaxira koefitsiyenti ($k_z=1,3$ deb qabul qilamiz).

2.Iste'mol qiladigan quvvat

$$P_{is} = P_{w'l} + P_{yord} + P_{yo'q} + P_{akk}$$

bu yerda $P_{w'l}$ – buyumni qizdirgichga sarflanadigan quvvati;

P_{yord} – yordamchi jihozlarni qizdirgichga sarflanadigan quvvat (idishlar, harakatlantiruvchi jihozlar va h.k.);

$P_{yo'q}$ – issiqlik yo'qolishlarini, to'ldirishga ketadigan quvvat;

P_{akk} –yuqori mintaqalarda haroratida turuvchi, to'suvchi tuzilishlarda (konstruksiyalarda) akkumulyatsiyalananuvchi qvvat, bu qvvat qurilmalar isitilishini kuzatuvchi nostonart jarayonlar murakab hisoblashni talab qiladi. Lekin ba'zi hollarda uning ulushi istemol qilinadigan qvvatning juda kam miqdorini tashkil qiladi, bunga kichik foterovkalanish misol bo'ladi, va yana qurilma boshlang'ich qizdirilishida, keyin uzoq vaqt o'chmasdan ishlaydi. Ko'rileyotgan topshiriqda bu qvvatni hisobga olmaymiz.

3. Quruq buyumlarni qizdirgichga sarflanadigan foydali qvvat,

$$P_{f1} = \Pi \cdot C \cdot (t_2 - t_1), \quad \left[\frac{kg}{c} \cdot \frac{J}{kg \cdot {}^{\circ}C} \cdot {}^{\circ}C = \frac{J}{c} = Vt \right]$$

$$\text{bu yerda, } \Pi \text{- unumdarlik } \left(\Pi = \frac{G}{\tau} = \frac{300}{3600} = 0,083 \text{ kg/sek} \right);$$

C_m – yuklamaning solishtirma issiqlik sig'imi; t_1 – boshlangich harorat; t_2 – oxirgi harorat.

$$P_{f1} = 0,083 \cdot 963 \cdot (200 - 20) = 14387,22 \text{ Vt}, \quad \left[\frac{kg}{c} \cdot \frac{J}{kg \cdot {}^{\circ}C} \cdot {}^{\circ}C = \frac{J}{c} = Vt \right]$$

4. Suvni $100 {}^{\circ}\text{C}$ haroratga qadar qizidirishga va uning bug'lanishiga sarflanadigan foydali qvvat,

bu yerda, Π – unumdarlik ($\Pi = 4,16 \cdot 10^{-3}$ kg/sek.); C – suvning solishtirma issiqlik sig'imi;

t_1 – boshlang'ich harorat ($20 {}^{\circ}\text{C}$); t_2 – oxirgi harorat ($100 {}^{\circ}\text{C}$);

λ – yashirin issiqlik bug'lanish ($\lambda = 2,26 \cdot 10^6 \text{ Dj/kg}$).

$$P_{f2} = \Pi \cdot C \cdot (t_2 - t_1) + \lambda I$$

$$P_{f2} = 4,16 \cdot 10^{-3} \cdot 4187 \cdot (100 - 20) + 2,26 \cdot 10^6 \cdot 4,16 \cdot 10^{-3} = 10795,03 \text{ Vt},$$

5. Suv bug'ini qizitishga sarflanadigan foydali qvvat,

bu yerda, Π – unumdarlik ($\Pi = 4,16 \cdot 10^{-3}$ kg/sek.); C – suv bug'ining solishtirma issiqlik sig'imi; t_1 – boshlang'ich harorat ($100 {}^{\circ}\text{C}$);

t_2 – oxirgi harorat ($200 {}^{\circ}\text{C}$).

$$P_{f1} = \Pi \cdot C \cdot (t_2 - t_1)$$

$$P_{f1} = 4,16 \cdot 10^{-3} \cdot 2012 \cdot (200 - 100) = 836,99 \text{ Vt},$$

6. Umumiy foydali quvvat

$$P_f = P_{f1} + P_{f2} + P_{f3} = 14387,22 + 10795,03 + 836,99 = 26019,24 \text{ Vt},$$

7. Konveyerni qizitishga sarflanadigan quvvat yo'qolishi (yordamchi jihozzlarni qizitish)

$$P_{vor} = P_{yo'q1} = \Pi \cdot C \cdot (t_2 - t_1)$$

$$\text{bu yerda, } \Pi = \text{unumdotlik } \left(\Pi = \frac{G}{\tau} = \frac{300}{3600} = 0,083 \text{ kg/sek} \right), \text{ unumdotlikni}$$

yuklamani qizdirgich unumdotligi bilan teng deb qabul qilamiz;

C – konveyer materialining solishtirma issiqlik sig‘imi;

t_1 – boshlang‘ich harorat (20°C); t_2 – oxirgi harorat (200°C).

$$P_{vor} = P_{yo'q1} = 0,083 \cdot 1477 \cdot (200 - 20) = 7126,38 \text{ Vt}$$

8. Berilgan havo almashtirilishini amalga oshirishda quruq havoni qizdirgichga sarflanadigan, quvvat,

$$P_{yo'q2} = \Pi \cdot C \cdot (t_2 - t_1)$$

$$\text{bu yerda, } \Pi = \text{unumdotlik } \left(\Pi = \frac{\gamma_q \cdot V_n \cdot 4}{\tau} = 0,1018 \right), \gamma_q \text{ havo} - \text{quruq havo}$$

zichligi;

V_n – pech sig‘imi, 4- bir soatda to‘rt karra havo almashuvi (3600 cek.); C – quruq havo solishtirma issiqlik sig‘imi; t_1 – boshlang‘ich harorat (20°C); t_2 – oxirgi harorat (200°C).

$$P_{yo'q2} = 0,1018 \cdot 1021 \cdot (200 - 20) = 18704,72 \text{ Vt}$$

9. Pech devorlari orqali issiqlik quvvati yo'qolishi

$$P_{yo'q3} = 0,2 \cdot P_f = 0,2 \cdot 26019,24 = 5203,85 \text{ Vt}.$$

10. Umumiy issiqliklar quvvat yo'qolishi

$$P_{yo'q} = P_{yo'q1} + P_{yo'q2}$$

$$P_{yo'q} = 18704,72 + 5203,85 = 23908,57 \text{ Vt}.$$

11. O‘rnatalgan quvvat

$$P_o = P_f + P_{vor} + P_{yo'q} = 26019,24 + 7126,38 + 23908,57 = 57054,19 \text{ Vt}.$$

$$P_o = k_z \cdot P_o = 57054,19 \cdot 1,3 = 74170,45 \text{ Vt}$$

2.5 Elektr qarshilik pechlarining issiqlik hisobi

2.7 – misol.

Belgilangan maqsad uchun issiqlik (energetik, issiqlik, geometrik) parametrlarining hisobi olib boriladi, va rejadagi texnologik jarayonlarning bajarilishi ta'minlanadi.

Hisob-kitoblar natijasiga ko'ra o'rnatilgan quvvat aniqlanadi, materiallarni va futerovkalarining qalnligini tanlash olib boriladi.

Uzluksiz ishlovchi (QEP) uchun isitish mintaqasi va har bir mintaqaga quvvati tanlanadi. Har xil tuzilishli eski elektr pechlar tanlaganda, bundan tashqari termik ishlov berilishi talab qilgan rejim jarayoni tanlanganda, bundan tashqari mahsulotga ishlov beriladigan nomenklatura o'zgorganida tekshiruv hisob-kitobi olib boriladi, ya'ni belgilangan texnologik jarayon kerakli unumdorli rejimda bajarilish imkoniyati mavjudligi aniqlanadi.

Boshlang'ich ma'lumotlar:

Qizdiriladigan mahsulotning nomi	J temir.
Mahsulotni massasi	$M = 255 \text{ kg}$;
Elektr pech uzunligi	$L = 4 \text{ m}$.
Boshlang'ich harorati	$t_1 = 25^\circ\text{C}$ (298 K)
Oxirgi harorati	$t_2 = 720^\circ\text{S}$ (993 K)
Qizdiriladagan obyektni issiqlikdan nurlanishi	$\varepsilon_r = 0,7$
Ishlov beriladigan mahsulotni yuzasi	$F = a \cdot b = 2 \cdot 1 - 2 \text{ m}^2$.
Vaqt sabrлиgi	$\tau_{vaqt} = 1800 \text{ sek}$
Sovutilish vaqtি	$\tau_{sovutish} = 2520 \text{ sek}$
Yuklashlar va yuksizlantirishlar vaqtি	$\tau_{yuk va yuksiz} = 540 \text{ sek}$

Aniqlash:

1. Davr vaqtı, qizdirilishning va keltirilgan nurlanish koeffitsiyenti.
2. Pech iste'mol qiladigan issiqlik va quvvati.
3. Pech unumdorligini va elektr energiyaning solishtirma sarfi.
4. Qizishning foydali koeffitsiyenti.

Yechish:

1.Termik ishlov berish davomiyligi davri va EQPning unumdorligi aniqlanadi, bu elektr pechlarning asosiy texnologik rejimi ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Umumiy holatda davr vaqtı, sek

$$\tau_s = \tau_q + \tau_{sabr} + \tau_{sovush} + \tau_{yuklash-yuksiz} = 1244 + 1800 + 2520 + 540 = 6104 \text{ sek}$$

bu yerda, τ_q - qizish vaqtı; τ_{sabr} - texnologik sabr vaqtı; τ_{sovush} - sovish vaqtı; $\tau_{yuklash-yuksiz}$ - yuklash-yuksizlantirish jarayoni.

Ko'rib chiqilayotgan EQPning qiymati sifatida, belgilangan texnologik jarayonning qizishini hisoblashdagi texnologik vaqt sabrligi. Davrii ishlovechi EQP uchun yuklash-yuksizlantirish vaqtı aniqlanadi yoki shu turdagiga o'xshash tuzilishlilarning ishlatalish ma'lumotlari asosida, yoki shundayin xulosalarga asoslangan holda, ishlov beriladigan mahsulotning massasi, geometrik o'chamlari, EQP turi (kamerali, shaxtali, qopqoqli va bosh.), yuklash usuli, yuklashning mexanizatsiyalash-tirilganlik darajasi va boshqalar.

1.1. Texnologik yupqa mahsulotlarning qizitilish vaqtı (yuklanishi). Pechni doimo bir xil rejimli qizdirgich haroratlar vaqtı quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$\tau_n = \frac{c \cdot M \cdot v}{C_{krem} \cdot F_{nur}} = \frac{670 \cdot 255 \cdot 0,016}{3,99 \cdot 2} = 1244 \text{ sek.}$$

bu yerda, c -mahsulot materialining solishtirma issiqlik sig'imi, Dj/kg^0C

M - mahsulotni masasi, kg; F_{nur} - nurlanishni, issiq oqimini qabul qilayotgan, mahsulotning yuzasi (yuklanishlari), m^2 ; v - yupqa mahsulotlarning nurlanishdan qizishini texnika rejimidagi qizish koeffitsiyenti $t_N = const$.

1.2. Keltirilgan nurlanish koeffitsiyenti quyidagi formuladan aniqlanadi

$$C_{nur\ koeff} = \frac{C_0}{\frac{1}{\varepsilon_1} + \frac{F_1}{F_2} \cdot \left(\frac{1}{\varepsilon_1} - 1 \right)}$$

Bizni misolda $F_1 < F_2$ shu sababli $C_{keto} = 5,7 \cdot \varepsilon_1 = 5,7 \cdot 0,7 = 3,99$,

bu yerda, $\varepsilon_1 = 0,7$; $C_0 = 5,7 \text{ Vt/ m}^2 \text{ K}^4$ - Stefan-Bolsman doimiysi, absolyut qora jism nurlanish koeffitsiyentiga;

$\varepsilon_1, \varepsilon_2$ – nurlovchi (ishchi fazosini) va qizdirilayotgan obyektga (**Mahsulot**), mos ravishda, issiqlik nurlanish koeffitsiyenti;

F_1, F_2 – mahsulot va ishchi fazoning yuzalariga, mos ravishda

ε muhandislik hisoblarida $\varepsilon_2 = 0,9$, $\varepsilon_1 = 0,3 \div 0,7$, deb qabul qilish mumkin, agar $F_1 < F_2$ bo‘lganida $S_{keto} = 5,7 \cdot \varepsilon_1$ ko‘rinishga ega bo‘ladi

1.3.v koeffisient qiymati quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi

$$\nu = \frac{T_N}{Q} = \left[0,575 \lg \frac{\left(1 + \frac{T_N}{T_p} \right) \cdot \left(1 - \frac{T_N}{T_p} \right)}{\left(1 - \frac{T_N}{T_p} \right) \cdot \left(1 - \frac{T_N}{T_p} \right)} + 0,5 \arctg \frac{(T_K + T_N)}{\frac{T_p}{T_p^2}} \right]$$

$T_q = const$ bo‘lganida, $\nu = 0,016$ qiymati

bu yerda, T_p - pechlar harorati, K; T_h, T_o - qizitishning boshlanishida va oxiridagi jarayonga mos t_m ravishda mahsulotni harorati, K.

Koeffisient qiymatini hisoblashlarni oddiylashtirish uchun

$v = f(t_m, t_h)$ 1.1- rasmida mahsulotning boshlang‘ich harorati $t_h = 20^\circ C$.

Agar, bu holatda $t_h > 20^\circ C$ 1.1-rasmdan dastlab v_1 aniqlanadi, haroratning oxirgi faktli qiymati uchun, oxirgi harorat uchun keyin v_2 aniqlanadi, mos ravishda v qiymati shartli faktli uchun uning faktli harorati boshlang‘ich harorat va $v_1 = v_2$ ayirmasiga teng. Yupqa mahsulotlarni issiqlikning texnik rejimida konvektivli qizdirilishida $t_q = const$ qizdirilish vaqtı quyidagi formuladan aniqlanadi

$$\tau_K = \frac{cM}{\alpha_K \cdot F_K} \ln \frac{t_p - t_N}{t_p - t_K}$$

1.4.. formuladan EQP haroratlarini aniqlanishni hisoblash mumkin, bu yerda, belgilangan davomli qizdirilayotgan mahsulotni qizdirilishi talab qilingan haroratgacha ta'minlanadi.

Atrof muhit aylanish tezligiga bog'liq ravishda issiqlik uzatish konvektivligi X_k aniqlanadi, uning issiqlik fizik tarkibi ishlov beriladigan mahsulotlarning shakli va geometrik o'lchamlaridan iborat.

2. Pech iste'mol qilayotgan quvvatni issiqlik miqdori bo'yicha aniqlash.

$$Q_c = Q_{tol} + Q_{yord} + \sum Q_{isr}$$

yoki

$$P_{tot} = P_{tol} + P_{yord} + \sum P_{isr} = 3,492 + 6,363 + 0,174 = 10,029 \text{ kVt}$$

bu yerda, Q_{tol} yoki P_{tol} – issiqlik miqdori yoki quvvati, ishlov beriladigan mahsulotlarni yetarli darajada qizitish(foydali) uchun, Vt ;

Q_{yord} yoki R_{yord} – yordamchi moslamalarni(qutilar, konveyerlar tasmalarini, tagliklarni va boshqalar), qizdirgich uchun kerakli, issiqlik miqdori yoki quvvati, Vt ;

ΣQ_{isr} yoki ΣR_{isr} – kerakli issiqlik isrofi kompensatsiyasi uchun, issiqlik yoki quvvat yig'indisi, Vt .

2.1. Yordamchi quvvat:

$$P_{yord} = \frac{C_{yord} + M_{yord}(t_{h,yord} - t_{N,yord})}{\tau_s} + C_{G,yord} \cdot A_{G,yord} \cdot (t_p - t_{N,G,yord}) = \frac{670 \cdot 17 \cdot (720 - 25)}{1244} = 6,363 \text{ kG}$$

Bu misolda $C_{G,yord} \cdot A_{G,yord} \cdot (t_p - t_{N,G,yord}) = 0$ chunki shamol parrak yo'q, shu sababli P_{yord} qiymatini aniqlashda, gaz iste'moli va boshqalar. qiymati formulaga kirmaydi;

bu yerda, M_{yord} – yordamchi moslamalar massasi, kg; C_{yord} – yordamchi materiallar solishtirma issiqlik sig'imi, Dj/kg^0C

$T_{o,yord}$, t_b , t_{yord} – boshlangich va oxirgi issiqligiga mos ravishda yordamchi moslamalar harorati, 0C ; t_p - pechlar harorati; $A_{G,yord}$ - maxsus gazning yaxlit iste'moli, kg/C ; $S_{G,yord}$ - maxsus gazning solishtirma yaxlit issiqlik sig'imi, 0C ; $t_{h(G),yord}$ - maxsus gazning boshlangich harorati, 0C .

